

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O‘QITISH USULLARI TOPSHIRIQLAR MISOLIDA

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi*

Almardanova Sevara Azamatovna

alimardonovasevara86@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada frazeologik birliklarning ona tili ta’limidagi o‘rni, ularni samarali o‘qitishning nazariy asoslari hamda amaliy uslublar yoritilgan. Xususan, frazeologik birliklarni interaktiv va ijodiy yondashuvlar orqali o‘rgatish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Maqolada ta’lim jarayonida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan topshiriqlar namunasi keltirilgan va ularning didaktik ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, ona tili, ta’lim, interaktiv metod, ijodiy topshiriq, lingvistik tafakkur, badiiy ifoda

Аннотация: В данной статье раскрывается роль фразеологических единиц в преподавании родного языка, теоретические основы и практические методы их эффективного обучения. В частности, представлены подходы к обучению фразеологизмам с использованием интерактивных и творческих методов. Приведены примеры заданий, которые можно применять в образовательном процессе, а также проанализировано их дидактическое значение.

Ключевые слова: фразеологические единицы, родной язык, обучение, интерактивный метод, творческое задание, лингвистическое мышление, художественное выражение.

Abstract: This article explores the role of phraseological units in mother tongue education, the theoretical foundations for their effective teaching, and practical methods of instruction. In particular, it presents strategies for teaching phraseological units through interactive and creative approaches. The article includes sample tasks suitable for educational use and analyzes their didactic significance.

Keywords: phraseological units, mother tongue, education, interactive method, creative task, linguistic thinking, artistic expression.

KIRISH

Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir bo‘limi bo‘lib, unda ko‘chma ma’noga asoslangan turg‘un birikmalar, iboralar o‘rganiladi. “Frazeologiya” termini grekcha “pharsis” fraza, ifoda “logos” ta’limot degan ma’nolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat ko‘chma ma’noga asoslangan turg‘un birikmalar kiritiladi¹. XX asrning 60-80-yillariga kelib frazeologiya chet el tilshunosligida bo‘lganidek, o‘zbek tilshunosligida ham tez sur‘atlar bilan o‘sib bordi². Frazeologik birliklarning nazariy asoslari bo‘yicha Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, S.Mirzaqulov kabi olimlar frazeologik birliklarning nazariy asoslari haqida ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lsalar, frazeologik birliklarni o‘qitish, ularning ta’limdagi ahamiyati bo‘yicha A.G‘ulomov, B.To‘xliyev va D.Yuldasheva kabi metodist olimlar o‘z fikr va mulohazalarini keltirganlar.

Ona tili darslarida frazeologizmlarni o‘rgatish orqali bir qancha maqsadlar amalga oshiriladi. Bulardan eng ahamiyatlisi so‘z boyligini oshirishdir. Frazeologik birliklar o‘quvchining lug‘at boyligini sezilarli darajada kengaytiradi. Ular ko‘p hollarda bir butun ma’noga ega bo‘lgani uchun, ko‘chma ma’noli ifodalarni tushunish va ulardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi. Ikkinchisi bu madaniy ongni yuksaltirish hisoblanadi. Har bir frazeologik birlik xalq tarixining, urf-odatlar va qadriyatlarining mahsulidir. Ularni o‘rganish orqali o‘quvchilar milliy madaniyat, milliy tafakkur va xalq donishmandligiga chuqur kirib boradilar. Frazeologik birliklar ko‘pincha badiiy asarlar, xalq og‘zaki ijodi va nutqiy vositalarda keng qo‘llaniladi. Ularni tahlil qilish o‘quvchilarda obrazli va assotsiativ tafakkur shakllanishiga xizmat qiladi. Tilda ifoda vositasi sifatida

frazeologizmlar o'ziga xos badiiy kuchga ega. Ularni o'rganish jarayonida o'quvchilarda tilga nisbatan qiziqish, badiiy zavq va estetik sezgirlik kuchayadi. Maqolada frazeologik birliklarni o'qitish usullari va ular asosida ishlangan topshiriqlar keltiriladi.

ASOSIY QISM

Frazeologik birliklar ona tili ta'limining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular tilning estetik, madaniy va ma'naviy boyligini o'quvchilarga yetkazish, nutqni ifodali, ta'sirchan va obrazli qilishda muhim vosita sanaladi. Ayniqsa, ona tili fanining asosiy vazifasi o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirish ekan, frazeologik birliklar bu jarayonda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Frazeologik birliklarni samarali o'qitish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim prinsiplari asos bo'lishi zarur. Bu jarayonda nafaqat bilim berish, balki o'quvchining tilga qiziqishi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida frazeologik birliklarni samarali o'qitishning asosiy usullari va yo'llari bayon etiladi:

1. Kontekst asosida o'rgatish. Frazeologik birliklar alohida so'z sifatida emas, balki matn tarkibida, kontekst asosida tushuntirilsa, o'quvchi ularning ma'nosini tezroq anglaydi va eslab qoladi. Ayniqsa, badiiy matnlarda uchraydigan frazeologizmlar asosida ishlash samarali natija beradi.

2. Vizual vositalardan foydalanish. Tasvirlar, komikslarga asoslangan topshiriqlar, qisqa videolavhalar orqali frazeologizmlarning ma'nosini tushuntirish o'quvchilarni jalb qiladi. Bu metod, ayniqsa, boshlang'ich va o'rta sinf o'quvchilari uchun foydalidir.

3. Tahlil va taqqoslash metodlari. Frazeologik birliklarni so'zma-so'z tarjimasi bilan taqqoslash, ularning ko'chma ma'nodagi ifodaviy kuchini o'rganish o'quvchilarda analitik fikrlashni rivojlantiradi. Ayniqsa, madaniyatlararo taqqoslash usullari juda samaralidir. Bunda o'quvchilar boshqa tillarda mavjud bo'lgan iboralarni o'z ona tilimizda qaysi iboralar bilan sinonim bo'la olishini aniqlaydi va bunda ikki tomonlama samaradorlikka erishiladi. Bu metod, ayniqsa, yuqori sinflarda samarali hisoblanadi.

4. Milliy va xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘lash. Maqollar, topishmoqlar, xalq ertaklarida uchraydigan frazeologik birliklarni tahlil qilish, ularning xalq tafakkuri va qadriyatlari bilan bog‘liqligini ochib berish madaniy-estetik tarbiyada muhim rol o‘ynaydi.

5. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalarni qo‘llash. Zamonaviy o‘quvchilarning texnologiyaga qiziqishini inobatga olgan holda, onlayn viktorinalar, interaktiv testlar, “Quizlet” yoki “Kahoot” kabi ilovalardan foydalanib, frazeologik birliklarni mustahkamlash mumkin.

6. Ijodiy topshiriqlar asosida o‘rgatish. O‘quvchilardan frazeologik birlik ishtirokida she‘r, hikoya yoki dialog yozishni so‘rash, ularni obrazli fikrlashga o‘rgatadi. Bu metod nafaqat til boyligini, balki yozma nutq ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

Frazeologik birliklarni o‘rgatishda kontekstual yondashuv juda muhimdir. Ona tili ta’limida yuqoridagi kabi usullardan foydalanagan holda topshiriqlar ishlash ta’lim jarayoni ajralmas qismi bo‘lib qoladi. Quyidagi topshiriq o‘quvchilarda iboralarni matndagi vaziyatga qarab tushunish va izohlash, ularning ma’no ko‘lamini anglash, shuningdek, ifodali nutqda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi:

1-topshiriq. Rasm asosida birikmalarni toping va ularning ma’nosini izohlang. Ushbu birikmalar tilimizda nima deb atalishini bilasizmi?

1. Musajon o‘zi shunaqa: bir narsani sezdimi, darrov .

2. Ko‘cha chetida turgan bolakaylar  amakining orqasidan hayron bo‘lib qarab qolishdi.

3. Voyey, Tolibjonni aytmay sizmi, qachon qarasangiz  dek talmovsiranadi.

4. Eshik oldida turgan Olaparni ko‘rib Feruzaning darrovgina .



5. Mirhamid ota nevarasiga har narsaning o'z vaqti borligini, yaxshi emasligini tushuntirdi.

Ushbu topshiriq orqali o'quvchi nafaqat iboralarni anglab oladi, balki ularni hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llashga, fikrini mazmunli va obrazli ifodalashga ham o'rganadi. Rangli tasvirlar va jonli nutq shakli esa bolalarda e'tibor, estetik did va frazeologik sezgirlikni rivojlantiradi.

2-topshiriq. Iboralarni BIR XIL yoki HAR XIL ma'no anglatishiga ko'ra farqlab bering.

Iboralar		B	H
kapalagi uchmoq	tapa sochi tikka bo'lmoq		
yuragini hovuchlamoq	yuragiga tugmoq		
ko'zini olib qochmoq	ko'zdan nari bo'lmoq		
aravani quruq olib qochmoq	gapni aylantirmoq		
ona suti og'zidan kelmoq	nari borib, beri kelmoq		

Bu mashq o'quvchilarning frazeologik birliklar orasidagi nozik semantik farqlarni anglash, ularni nutqdagi o'rnini ajrata bilish va aniq mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

3-topshiriq. Quyida bir qancha vaziyatlar berilgan. Siz keltirilgan sinonim iboralarni juftliklari bilan birgalikda vaziyatga ko'ra moslang.

1. Universitetda olgan bilimlarim menga juda ham manfaatli bo'ldi.
2. Qilgan ishlarimning samarasi bo'lmaganda xafa bo'lgan edim.
3. Sotib olgan mahsulotim yaxshi ahvolda emasligini ko'rib g'alati bo'ldim.

4. O‘qishga kirolmaganini bilib Samina yig‘lab yuborish darajasiga yetdi.

5. Eshikdan kirib kelishlari bilan dadamning ahvolini ko‘rib ularning kayfiyati yomon ekanligini sezdim.

6. Komilbek hali aniq xabarni eshitmasdan turib uni boshqalarga tarqatib yubordi.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarda sinonim frazeologik birliklarni kontekst asosida to‘g‘ri qo‘llash malakasini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Har bir gap ma‘lum bir vaziyatni aks ettirib, unga mos sinonim iborani tanlash orqali frazeologizmlarning konnotativ ma‘nosini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu orqali o‘quvchilar frazeologik birliklarning sinonimik qatorini farqlashni, emotsional-psixologik holatni ifodalashda iboralarning kuchini his qilishni, og‘zaki va yozma nutqda iboralardan to‘g‘ri foydalanishni, mazmun va vaziyatga ko‘ra ibora tanlashni o‘rganadilar.

zoye ketmoq ko‘ngli g‘ash yig‘lamoqdan beri bo‘lmoq
ta‘bi xira o‘pkasi to‘lmoq to‘ydan oldin nog‘ora chalmoq qo‘l
kelmoq ta‘bi tirriq suvni ko‘rmay etik yechmoq shamolga uchmoq
ish bermoq avzoyi buzuq

4-topshiriq. Filmdan olingan parchada ishtirok etgan iboralarni aniqlang va ularning ma‘nosini izohlang.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning ko‘rgazmali vositalar orqali frazeologik birliklarni anglash, ajratish va sharhlash malakasini rivojlantirishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilarga mashhur bir film yoki multfilmning qisqa parchasi taqdim etiladi. Ushbu parcha ichida ishlatilgan iboraviy ifodalarni topish, ularning lug‘aviy va kontekstual ma‘nosini aniqlash, shuningdek hayotiy holatlar bilan bog‘lash talab etiladi. Film parchasi orqali berilgan iboralar tabiiy ravishda ishlatilgani sababli, bu topshiriq o‘quvchilarga iboralarning real hayotdagi qo‘llanilishi, intonatsion rang-barangligi va ta‘sirchanligini to‘g‘ri anglash imkonini beradi. Shuningdek, bunday topshiriq o‘quvchilarning diqqat-e‘tiborini, tinglab tushunish ko‘nikmalarini, ijodiy tafakkurini va tilga bo‘lgan qiziqishini ham kuchaytiradi.

XULOSA

Frazeologik birliklar – xalq tafakkurining teran ifodasi, tilimizning estetik boyligini namoyon etuvchi muhim qatlamdir. Ularni o‘rganish nafaqat o‘quvchilarning leksik bilimlarini kengaytiradi, balki ularning nutqiy madaniyati, milliy tafakkur va badiiy didini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolada frazeologik birliklarning ona tili ta’limidagi o‘rni keng tahlil qilinarkan, ularni o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali, interaktiv va ijodiy yondashuvlar chuqur yoritildi. Xususan, kontekst asosida o‘rgatish, vizual va raqamli vositalardan foydalanish, milliy madaniyatga bog‘langan topshiriqlar va ijodiy faoliyatlar orqali o‘quvchilarda frazeologik tafakkur, assotsiativ fikrlash va nutqiy ifoda mahorati shakllantiriladi. Ushbu yondashuvlar orqali o‘quvchilar frazeologizmlarning semantik nozikliklarini farqlash, ularni hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llash, nutqni obrazli, ta’sirchan ifodalash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, maqolada taklif etilgan topshiriqlar nafaqat frazeologik birliklarning lug‘aviy ma’nosini anglash, balki ularni kontekstual va emotsional mazmun bilan bog‘lab tushunishga xizmat qiladi. Bu esa o‘quvchilarning ijodiylik, muloqot va madaniy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Demak, frazeologik birliklarni zamonaviy usullar asosida o‘rgatish, ularni hayotga yaqinlashtirish orqali til o‘rgatish jarayonini mazmunan boyitish va o‘quvchida ona tiliga nisbatan muhabbat uyg‘otish mumkin.

Shu sababli, har bir til o‘qituvchisi frazeologizmlarni o‘rgatishda yangicha, ijodiy yondashuvlardan keng foydalanishi, ularni o‘quvchilarning hayoti va dunyoqarashi bilan bog‘lashga harakat qilishi lozim. Zero, frazeologik birliklar orqali biz nafaqat tilni, balki xalq ruhini, tarixini va ma’naviyatini ham o‘rgatamiz. Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklarni o‘rgatish o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirishda va ularning til boyligini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Дубна: Феникс, 2005. – С. 7.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. Toshkent, 1966.

3. Rahmatullayev Sh va boshqalar. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent, 2022

4. G‘ulomov A va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2012.

5. . Yuldasheva D. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro, "Durdona", 2021.